

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI

---

«AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI»  
kafedrası



**TIQXMMI**

Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligini  
Mexanizatsiyalash muhandislari instituti

«EKONOMETRIKA ASOSLARI»

*fanidan amaliy mashg'ulotlarni  
o'tkazish bo'yicha*

USLUBIY QO'LLANMA

TOSHKENT-2019

*Uslubiy qo'llanma institut ilmiy-uslubiy kengashining 2019 yil 24 aprel dabo'lib o'tgan 3-sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.*

Uslubiy qo'llanmada TIQXMMI «Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish» fakulteti 5230100-«Iqtisodiyot» (suv xo'jaligida), 5230200-«Menejment» va 5230900-«Бухгалтерия хисоби ва аудит» (suv xo'jaligida) yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun «Ekonometrika asoslari» fanidan amaliy topshiriqlar va ularni bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar keltirilgan.

**Tuzuvchilar:** G. Shodmanova i.f.n., professor

B.O. Raxmankulova i.f.n., dotsent

**Taqrizchilar:** Sh. Nasriddinova O'zbekiston Milliy Universiteti  
"Ekonometrika" kafedrasini mudiri, dotsent.

Z.S. Abdullaev, f-m.f.n., dotsent

©. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI), 2019 y.

## KIRISH

Axborot kommunikatsion texnologiyalari va matematik usullar boshqarishda, iqtisodiyotda, tijorat, ilmiy tadqiqotlarda, ta'limda, moliya va inson faoliyatining boshqa sohalarida qo'llanilishining rivoji axborotlashtirish va umuman, jamiyat rivojini belgilovchi yonalish hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning huquqiy bazasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl va usullari samaradorligini oshirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan va xalqaro standartlar darajasiga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari yaratilib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ushbu amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun uslubiy qo'llanma «Ekonometrika asoslari» fanidan ishchi dastur mavzulariga mos keladi. Bu qo'llanma talabalarning «Ekonometrika asoslari» fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashlariga yordam beradi.

Bu ko'rsatmada talabalar berilgan masalalarning ekonometrik modellarini mustaqil tuzishlari, ularni talab qilingan usullar bilan yechishlari uchun uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

Talabalarning fanni o'zlashtirishlari va ekonometrikani amaliy jihatdan o'rganib malaka hosil qilishlari, ularning iqtisodiy nazariya, qishloq va suv xo'jaligi iqtisodi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil qilish va rejalashtirish, matematik statistika, hisoblash texnikasi, axborot texnologiyalari bo'yicha olgan bilimlariga bog'liq.

Iqtisodiyotda matematik usullarni qo'llash iqtisodiy tadqiqotlarni ixchamlashtiradi va chuqurlashtiradi, ularning ilmiy asosi to'g'riligini va ta'sirchanligini oshiradi.

## 1-AMALIY TOPSHIRIQ

### Mavzu: Ekonometrik modellashtirish asoslari. Ekonometrik modellarnituzish bosqichlari

**1-Topshiriq.** Bu mavzuning nazariy qismi "Ekonometrika" fanidan tayyorlangan maruzalar matnida keltirilgan.

1. Ekonometrika nima?
2. Qanday modellarga ekonometrik modellar deyiladi?
3. Ekonometrika fani nimani o'rganadi?
4. Ekonometrik modellarning boshqa modellardan farqi.
5. Iqtisodiyotda ishlatiladigan ma'lumotlar turlari.
6. Ekonometrika qaysi sohalarda ishlatiladi?
7. Model va modellashtirish tushunchalari.
8. Iqtisodiy hodisalarning modellari qanday tuziladi?
9. Obyekt modelining ta'rifini keltiring.
10. Modellarning qaysi turlarini bilasiz?
11. Matematik modellashtirish ta'rifini ayting.
12. Modelning qanday o'zgaruvchilari ekzogen, qanday o'zgaruvchilari endogen deb aytiladi?
13. Statik modellar bilan dinamik modellarning farqi nimada?
14. Qanday ma'lumotlar o'zaro kesishuvchi ma'lumotlar deyiladi?
15. Qanday ma'lumotlar davriy qatorlar deyiladi?
16. Iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ishning qanday usullari mavjud.
17. Iqtisodiy tahlilda ma'lumotlarning ahamiyati?
18. Aytaylik, sizda daromad va iste'mol orasidagi chiziqli bog'lanishni asoslab berish uchun empirik ma'lumotlar mavjud bo'lsin. Bunday masala iqtisodiy matematikaga oidmi yoki ekonometrikagami?
19. Modelning adekvatligi nima?
20. Qanday adekvatlik kriteriyalarini bilasiz?